

**JAMIYATNING MADANIY-MA'RIFIY VA AXLOQIY
TAFAKKURINI YUKSLISHIDA KEKSA AVLOD TAJRIBASINING ROLI**

Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich,
Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrası katta o'qituvchisi,
falsafa fanlari boyicha falsafa doktori (PhD).
Xolmatjonov Asrorjon Bahromjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Bugungi kunda har bir jamiyatni ma'naviy, ma'rifiy jihatdan isloh etishda keksa avlod vakillarining chuqur bilim va hayotiy saboqlarga to'la tajribalaridan samarali foydalanish tamoyili alohida ustuvorlik kasb etmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, keksa avlodning axloqiy vorisiylik tajribasini yosh avlodga yetkazish, mazkur jarayonni ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida tadqiq etish va uning amaliy natijalaridan oqilona foydalanish masalalari alohida dolzarblikka egadir. Aytish kerakki, bugungi kunda dunyo aholisining tarkibida, keksa avlod vakillarining soha va tarmoqlar rivojida ishtiroki kengayib borayotgani yaqqol sezilmoqda. Ayniqsa, ularning ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy jarayondagi faolligi, jamiyatdagi yangilanishlar va o'zgarishlar davomida uchraydigan ijtimoiy muammolar yechimidagi muhim o'rni keksa avlod faoliyatining tadqiqot obyekti sifatida o'rganilishiga asos bo'lmoqda. Shu asosda keksa avlodning boy tajribasi, ilmiy salohiyatidan yoshlar axloqiy madaniyatini shakllantirishda samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish vazifasi metodologik yondashuvlarga asoslangan tadqiqotlarga bo'lgan zaruratni kuchaytirmoqda.

Kalit so'zlar: ijtimoiy rivojlanish, yoshlar ma'naviyati, axloqiy madaniyat, keksa avlod ibrati, tajriba.

Аннотация: Сегодня особую актуальность приобретает принцип эффективного использования глубоких знаний и опыта, насыщенного жизненными уроками представителей старшего поколения в духовно-образовательном реформировании каждого общества. С этой точки зрения особую актуальность приобретают вопросы передачи опыта нравственной преемственности старшего поколения молодому поколению, исследования этого процесса в рамках социально-гуманитарных наук, рационального использования его практических результатов. Следует сказать, что сегодня в структуре населения мира возрастает участие представителей старшего поколения в развитии отраслей и производств. В частности, их активность в духовно-образовательном и воспитательном процессе, их важная роль в решении социальных проблем, возникающих в ходе обновления и изменений в обществе, является основой изучения деятельности старшего поколения как

объекта исследования. Исходя из этого, задача совершенствования механизмов эффективного использования богатого опыта и научного потенциала старшего поколения в формировании нравственной культуры молодежи усиливает потребность в исследованиях, основанных на методологических подходах.

Ключевые слова: социальное развитие, духовность молодежи, нравственная культура, пример старшего поколения, опыт.

Annotation: Today, the principle of effective use of deep knowledge and experiences full of life lessons of the representatives of the older generation in the spiritual and educational reform of every society is gaining special priority. From this point of view, the issues of conveying the experience of the moral succession of the older generation to the younger generation, researching this process within the framework of social and humanitarian sciences, and rationally using its practical results are of special relevance. It should be said that today the participation of the representatives of the older generation in the development of industries and industries is growing in the structure of the world's population. In particular, their activity in the spiritual-educational and educational process, their important role in the solution of social problems encountered during the renewal and changes in the society is the basis for studying the activity of the older generation as a research object. On this basis, the task of improving the mechanisms of effective use of the rich experience and scientific potential of the older generation in the formation of the moral culture of young people increases the need for research based on methodological approaches.

Key words: social development, youth spirituality, moral culture, example of the older generation, experience.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yoʻnalishlari, ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlar axloqiy madaniyatining evolyutsiyasi, yosh avlodning axloqiy madaniyatini shakllanishida dono xalqimiz va uning keksa avlodi muqaddas va ulugʻvor tajribasini oʻrganish, tahlil qilish, ijtimoiy hayot uchun zarur yoʻl-yoʻriqlar olish va amaliyotga tadbiq etishdir. Bu oʻrinda oʻtmish va bugungi kun taʼlim va tarbiya, nazariya va amaliyot, odob va axloq bevosita uygʻunlashib borishiga ishonch hosil qilamiz.

Uzoq oʻtmishda yashab ijod qilgan bobokalonlarimiz va bugungi kunda ham yaratuvchilik mehnati va ilm-fandagi mislsiz jasorat koʻrsatayotgan keksa avlodning ibratli hayoti, serqirra faoliyati ilm-fan rivoji yoʻlidagi olamshumul ishlari bugungi kunda barkamol avlodni voyaga yetkazishda yoʻlchi yulduz boʻlib xizmat qilib kelinmoqda. Zero, ulugʻ bobomiz Abdulla Qodiriy uqtirganlaridek, moziyga qaytib ish koʻrish xayrlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev akademik ilm-fanni, shuningdek, oliy o‘quv yurtlaridagi ilm-fanni yanada rivojlantirish bo‘yicha strategik vazifalar doirasida, “eng avvalo, yoshlar va aholi o‘rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun yurtimizda muhit va zurrur shart-sharoitlarni yaratish”[1] lozimligini ta’killaydi.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining ustuvor vazifalari bilan bog‘liq. Ushbu maqolada ijtimoiy rivojlanish, yoshlar axloqiy madaniyati, keksa avlod ibratlari kabi tushunchalarning tuzilishi va mohiyati eng muhim, o‘zak yoki tayanch ijtimoiy-falsafiy, umumsotsiologik muammo sifatida olinib, uning namoyon bo‘lishi, o‘ziga xos tomonlari, umummilliy va umuminsoniy xususiyatlari ilmiy-nazariy xususiyatlari tahlil qilinadi.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijtimoiy rivojlanish tushunchasining mazmun-mohiyatini asosli ravishda yoritish va tahlil qilish uchun ijtimoiy faollik va shaxsning ijtimoiy faolligi, ijtimoiy muhit va yoshlar axloqiy madaniyati shakllanishi bu jarayonda obyektiv va subyektiv omillarning dialektik birligi va o‘zaro aloqadorligi, yoshlarning tafakkur madaniyatida keksa avlodning o‘rni va ahamiyati kabi falsafiy tamoyillar tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.[3]

Ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasi juda keng diapozonga – doiraga ega bo‘lgan nazariya va amaliyotning birligidir. Shuning uchun ijtimoiy rivojlanishni jamiyat va shaxsning rivlanish darajasiga qiyosiy taqqoslash mezonlari sifatida ham qo‘llaniladi.

Falsafiy hamda iqtisodiy sotsiologik adabiyotlar ijtimoiy rivojlanish tushunchasini ijtimoiy-jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini aniqlashga jiddiy ahamiyat beriladi, zero bu kategoriya vastasida moddiy, iqtisodiy munosabatlarning asosi belgilanadi.

Ijtimoiy munosabatlar va ularning rivojlanishi to‘g‘risida turli talqinlar mavjud. Hozirgi vaqtda asosan uch xil talqin adabiyotlarda qayd etiladi.

Birinchisi, asosiy mazmunga ega bo‘lib, barcha ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, oilaviy –turmush sohalarida ijtimoiy munosabatlar.

Ikkinchisi, eng tor ijtimoiy rivojlanish tomonlarini ifoda etadi, ya’ni kishilar o‘rtasidagi, jamoa mehnat turlaridagi kishilar guruhlarida amal qiladigan aloqalar va munoabatlar yig‘indisidan iborat.

Uchinchisi, ijtimoiy-tarixiy jamoalardan iborat bo‘lib, sinf, millat, tabaqa, oila kabi ijtimoiy uyushmalarni ifodalaydi. Yuqoridagi umumiy asosnomani keng va atroflicha ijtimoiy-falsafiy talqin etish maqsadga muvofiq.[4]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda, jamiyatning rivojlanishi tarixiy bosqichlarida ijtimoiy taraqqiyot quyidagi tiplarga egaligini ta'kidlab o'tish zarur. Ijtimoiy rivojlanish tushunchasi jamiyat taraqqiyotini muayyan va eng muhim tomonlarini aks ettiradi. Tarixiy voqelikdagi o'zgarishlarning xilma-xilligiga qaramay ijtimoiy rivojlanish tushunchasi jarayonning bir tomoniga, ya'ni ijtimoiy o'zgarishlarning ma'lum qonuniyatlar, meyorlariga, harakat yo'llariga ega ekanligini bildiradi.

2. Ijtimoiy hayotda ijtimoiy rivojlanish davriy jarayon bo'lib, o'ziga xos rivojlanish mantig'iga va amalga oshirishining shakllariga ega bo'ladi. Bu o'rinda taraqqiyotimizning "o'zbek yo'li" konsepsiyasini ta'kidlash zarur. Ijtimoiy rivojlanishning "o'zbek yo'li" konsepsiyasi alohida ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy tadqiqot obyekti bo'la oladi.

3. Keksa avlod fenomeni va unga aloqador boy bilim va tajriba masalalari orqali ijtimoiy rivojlanish ta'minlanadi. Bunda jamiyatning an'anaviy, milliy taraqqiyot yo'li mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar o'zaro uyg'unlashib borayotganligi va bu noyob ijtimoiy hodisa nafaqat jamiyat miqyosida, balki har bir shaxs, jamoa, davlat, fuqarolik boshqaruvi sohalarida ham namoyon bo'lib, o'zining muvaffaqiyatlarini har jabhada, har shaxs, oila hayotida, O'zbekistonning xalqaro munosabatlarda o'rnini mustahkalanib borayotganligida namoyon etmoqda.[5]

Yoshlarning ma'naviy, madaniy, ma'rifiy salohiyati shakllanishi o'z o'zidan ijtimoiy rivojlanishning ma'lum bir kategoriyasini tashkil etadi. Keksalari ibratini va boy merosi orqali shakllangan jamiyat, yuqorida aytib o'tilganidek, tarixiy rivojlanib, o'zgarib boruvchi kategoriya hisoblanadi. Uning rivojlanishi ko'p ma'noli: ijtimoiy rivojlanish, ya'ni faollik davrdan davrga o'sib-yuksalib boradi, mehnatkashlarning ijtimoiy faolligi son va sifat hamda miqyos jihatdan o'zgaradi, uning tuzilishi boyib boradi. Ushbu jarayon umumtarixiy va joriy nuqtayi nazardan mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlarini qudratini oshirish, mehnatga munosabatni o'zgarishi, mehnatni barham topishi, sanoatlashgan industrial mehnatni qaror topishi, mehnat jarayonida aqliy mehnat hissasini ustuvorlikka erishishi, aholini madaniy darajasini o'sirish, mehnatni tashkil etish va rag'batlantirishning yangi samarador shakllarini joriy etish va boshqa shu kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq.[6]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ma'naviy, ma'rifiy, axloqiy va madaniy tafakkurining yuksalishi masalasi ijtimoiy rivojlanishga asos bo'la bo'la oladi, bu esa o'z navbatida mazkur rivojlanishni ta'minlovchi omillardan biri kekse avlod tajribasiga bevosita bog'liqdir. Shu asosda ijtimoiy rivojlanishning shakllari va

usullarini namoyon bo'lishi xilma-xil. O'zbekistonda asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo'lgan mehnat ahliga, xodimlarga mehnat sharoitini yaxshilash bilan bir qatorda, ularni ijtimoiy rivojlanishini ta'minlochi barchsa shart-sharoitlar yaratilgan.

Ijtimoiy rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy muammolarini ilmiy tadqiq etishda eng muhim mavzularlardan biri sifatida shaxs va uning ehtiyojlari o'rganish va ilmiy tadqiq qilish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, mustaqillik sharofati bilan tobora kengayib va to'laroq qondirilib borayotgan jamiyat va shaxs ehtiyojlari jamiyat ijtimoiy rivojlanishini eng muhim harakatga keltiruvchi va oldinga yetaklovchi omil bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Шавкат Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик –ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. –Т.: Ўзбекистон, 2017. 47-бет.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qodiasi bo'lishi kerak. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mukhutdinovich, A.N. (2022). In Matters of Spiritual and Moral Education of Children in the Family, the Alienation of Youth to the Older Generation. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(7), 24-26. 2.
5. Mukhutdinovich, A.N. (2022). Intellectual Culture in Increasing the Innovative Activity of Young People-An Important Criterion. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(7), 134-136.
6. Ahmadiyev, N.M. (2020). SPIRITUAL AND MORAL UPBRINGING OF YOUNG PEOPLE IS A FACTOR OF GREAT PROSPECTS. In PEDAGOGIKA. PROBLEMI, PERSPEKTIVI, INNOVATSII (pp. 3-6).
7. Akhmadiev, N. (2019). Factors of raising the level of spiritual and social activity in the youth. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(1), 134-140.
8. Akhmadiev, N.M. (2019). ISLAMIC SPIRITUAL PROSPERITY OF YOUTH IN RELIGIOUS EDUCATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 234-236. Vol. 42 (2023):
9. Ahmadiyev, N.M., & Juraev, I. M. (2019). Family reading-a leading factor in the promotion of youth moral education. Nauchniye issledovaniya v Kirgizskoy Respublike, (3), 24-27.
- 10..Axmadiyev, N.M. "PAVLONIYA-MO'JIZAVIY DARAXT." European Journal of Interdisciplinary Research and Development 15 (2023): 460-464.

11. Nuriddin M.Akhmadiev. FACTORS FOR THE HEALTH OF THE SPIRITUAL MORAL WORLD OF THE YOUNGER GENERATION. Oriental Journal of Social Sciences SJIF for 2022: 5.908